

BAXSHILAR IJODIDA ALPOMISH DOSTONINING TALQIN ETILISHI

*Axmedova Gulchehra O'skinovna,
Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida
dotsenti, t.f.b.f.d (PhD)*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЭПОСА АЛПОМИШ В ТВОРЧЕСТВЕ БАХШИ

*Ахмедова Гульчехра Оськиновна,
Кафедра всеобщей истории Термезского
государственного университета доцента, (PhD)*

INTERPRETATION OF THE EPIC OF ALPOMISH IN THE CREATION OF BAKHSHISH

*Akhmedova Gulchehra O'skinovna,
Department of World History of Termiz State University
associate professor, (Ph.D)*



Orcid: 0009-0009-6649-
9557

axmedovaguli@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o'z yurtini madh etgan xalq baxshilari hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berilgan. Bugungi kunda baxshichilik san'atiga qaratilayotgan e'tibor va e'tirof to'grisida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: baxshi, doston, do'mbira, dutor, tor, rubob, doira, daf, sozanda, sozchi, ijrochi.

Аннотация: Дается информация о жизни и деятельности народных меценатов, прославивших свою страну. Обсуждалось внимание и признание, уделяемое сегодня искусству бахшиши.

Ключевые слова: бахши, эпос, домбира, дутор, тор, рубоб, круг, бубен, музыкант, композитор, исполнитель.

Annotation: Information is given about the life and work of people's philanthropists who glorified their country. The attention and recognition paid to the art of baksheesh today has been discussed.

Key words: bakhshi, epic, dombira, dutor, tor, rubob, circle, tambourine, musician, composer, performer.

KIRISH (INTRODUCTION). Taniqli folklorshunos olim Mamatqul Jo'rayev "Alpomish" dostonining Surxondaryo talqinlari bo'yicha mukammal ilmiy tadqiqotlar olib borib ijobiy natijalarga erishilgan. M. Jo'rayev o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos durdonalaridan biri «Alpomish» dostoni milliy epik an'ananing ko'p asrlilik badiiy evolyusiyasini o'zida ifoda etgan doston haqida quyidagi manbalarni bayon etadi. Bu doston syujetining arxaik qatlami qadimgi turkiylarning mifologik tasavvurlari va epik an'analarga borib taqaladi. Dostonning o'ziga xos talqinlari Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'ltan, Berdibaxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li va boshqa

ko'plab mashhur baxshi shoirlardan yozib olingan [1:76]. «Alpomish» dostoni Janubiy O'zbekiston epik arealida, xususan, Surxondaryo viloyati baxshilari repertuarida hozirgacha saqlanib qolgan bo'lib, jonli ijro holatida rivojlanib, yanada takomillashib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS) 1890-yilda Termiz shahri yaqinidagi Solihobod qishlog'ida rus orientalisti Ye. F. Kal ilk bor Qo'ng'iro't qabilasining Oyinli urug'iga mansub Omonnazar baxshidan uch soat davomida "Alpomish" dostonini tinglagan. U o'z kundaligida «Qo'ng'iro't urug'ining o'yinli shoxobchasiga mansub Omonnazar baxshi uch soat mobaynida dutor jo'rligida «Alpomish»

dostonini kuylab berdi», deb yozgan. O‘zbekiston ilmiy-tekshirish instituti Folklor ekspeditsiyasi tarkibida 1929-yil 17-iyul kuni Boysun tumanining Padang qishlog‘ida bo‘lgan etnograf L. P.Potapov, tilshunos G‘.O.Yunusov va folklorshunos H.Zarifovlar “Qo‘ng‘irot botiri Alpomish” haqidagi dostonni eshitishgan. 1945-yilda H.Zarifov va Q.Muhamedovlar Sherobod tumanining Chig‘atoy qishlog‘ida yashagan Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘lidan “Alpomish” dostonining ikkinchi qismini yozib olishgan. Shuningdek, “Alpomish” dostonining Surxondaryo variantlari 1956-yilda Umir shoir Safarovdan, 1958-yilda Mamadrayim yuzboshi Muhammadsodiq o‘g‘lidan, 1966-yilda Sherobodlik Bo‘ri baxshi Ahmedovdan ham yozib olingan. Mustaqillik yillarida Surxondaryo vohasi baxshilari repertuaridagi “Alpomish” dostoni variantlarini to‘la yozib olishga kirishildi. Natijada Sherobodlik Xo‘shboq baxshi Mardonaqulov, Chorshanbi baxshi Rahmatullayev, Denovlik Boborahim Mamatmurodov, Qiziriqlik Abdunazar Poyonov, Muzrabodlik Qora baxshi Umirovlardan “Alpomish” va “Yodgor” dostonlari yozib olindi[2:173]. Bundan tashqari, Alpomishning bahodirligi to‘g‘risidagi epik asarlarning faqat Surxondaryo vohasi baxshilari repertuaridagina mavjud bo‘lgan va boshqa hududlarda uchramaydigan “Beva Barchin”, “Oytovka”, “Yo‘lchiboy” singari namunalarini ham yozib olishga erishildi. “Alpomish” dostonining Surxondaryo variantlari o‘ziga xosligi bilan O‘zbekistonning boshqa hududlarida yozib olingan variant va versiyalaridan jiddiy farq qiladi. Masalan, XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida Sherobod tumanida Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li ijrosida yozib olingan “Alpomish” dostoni ikki ming misradan ortiq she‘riy qismni o‘z ichiga olgan.

Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li talqinicha, Qalmoqshohning qizi Tovka sayr qilib yurganida tasodifan Alpomish yotgan chohning ustidan chiqib qoladi va sochi bilan uni tortib olmoqchi bo‘ladi. Ammo Alpomish uning taklifini rad etadi va o‘zining uchqur tulpori - Boychibor yordamida chohdan xalos bo‘ladi. Bu variantning o‘ziga xosligi shundaki, unda oti ko‘magida chohdan chiqib olgan Alpomish Qalmoq shohining qizi Tovkaga uylanib, undan Qallochbek ismli o‘g‘il ko‘radi. Garchi doston ko‘plab iqtidorli o‘zbek baxshilaridan yozib olingan bo‘lsa-da, bu motiv mazkur dostonning eng mukammal nusxalaridan biri Samarqand

viloyatining Bulung‘ur tumanida yashagan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida ham uchramaydi [3:133]. “Alpomish” dostoni Surxondaryo variantlariga xos eng muhim belgi - Alpomish qaytib kelgandan keyingi o‘lan aytishish motivi uchramasligidir. Umir shoir Safarov ijro etgan namuna 382 sahifadan iborat bo‘lib, Surxondaryo baxshilari repertuarida qayd qilingan “Alpomish” dostoni variantlarining eng mukammali hisoblanadi.

NATIJALAR (RESULTS)

Surxondaryo vohasi baxshichiligida esa ushbu qahramonlik eposining uzviy davomi bo‘lgan “Beva Barchin”, “Yo‘lchiboy”, “Shomurod” dostonlari ham ijro etiladi. “Alpomish” dostonini asrlar davomida kuylagan baxshilarning improvizatsiya qilish mahorati natijasida XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida alohida epik asar sifatida ajralib chiqqan “Beva Barchin” (yoki “Barchin bekach”) dostoni 10214 misra she‘riy va nasriy qismdan iborat. Bu doston Surxondaryo viloyatining Muzrabod tumanida yashovchi Chori baxshi Umirovdan yozib olingan [4:76]. Surxondaryo vohasi dostonchiligi, jumladan, “Alpomish” dostonining ijrochiligi bugungi kunga qadar o‘zining qadimiy an‘analarini davom ettirib kelmoqda. Hozirgi davrda “Alpomish” dostoni Boysunlik Shoberdi baxshi, Ismoil baxshi Anvaryov, Denovlik Boborahim baxshi Mamatmuradov, Qiziriqlik Muxammadi Eshboyev, Termizlik Ilhom baxshi Norov va boshqa baxshilar tomonidan to‘y-hashamlarda, yilboshi - Navro‘z saylida, hosil bayramlarida ijro etilishi bundan ming yil burun yuzaga kelgan bu buyuk doston tarixiy-folkloriy jarayonda faol yashashda davom etayotganini ko‘rsatadi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida keng ma‘noda talqin qilingan, jahon adabiyotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan “Alpomish” dostoni milliy ma‘naviy jihatdan yuksak to‘yg‘ularni o‘zida jam etib, insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik, oilaparvarlik, sevgi-sadoqat, or-nomus, vafodorlik timsollari asosida yaratilgandir. Doston o‘zbek xalqining ona-vatanga sadoqati, vatan tuprog‘ini muqaddas saqlash, vatanni sog‘inish, uni ko‘z qorachig‘idek asrash, dushmanlarga nafrat, jismoniy baquvvatlik, tinchlikka asoslanib, har bir narsani maslahat asosida hal qilish g‘oyasi singdirilgan. Turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. “Alpomish”ning Qoraqalpoq, Qozoq, Oltoy versiyalari doston shaklida, Tatar va Boshqird versiyalari ertak va rivoyat shaklida

bizgacha yetib kelgan. O‘zbeklar “Alpomish”, Qorapoqlar «Alpamis», Qozoqlar «Alpamis batir», Oltoyliklar «Alip-Manash», Qozon tatarlari «Alpamsha”, boshqirdlar «Alpamisha va Barsin, hiluu» deb nomlaganlar [5:158].

MUHOKAMA

(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).

“Alpomish” dostoni bundan ming yil oldin Turkiy xalqlarning qadimiy dostonchilik an‘analari asosida xalq og‘zaki ijodi namunasi sifatida yaxlit doston shaklini olgan bo‘lsa-da, aslida «Alpomish» dostonining eng qadimgi davrlardan boshlab yurtimizda kechgan jarayonlarning badiiy talqinini o‘zida aks ettirgan. Qo‘ng‘irot qabilasining turli hududlarga siljishi va ularning yangidan shakllanayotgan xalqlar tarkibiga kirib borishi natijasida doston boshqa urug‘ va elatlarga ham o‘tib, ularning epik an‘analari asosida qayta ishlana borib, juda keng tarqaldi va nihoyat, uning yaratilishida ota-bobolari ishtirok etgan har bir xalqning o‘z eposiga aylandi. Ammo bunday xulosa dostonga asos bo‘lgan syujet va yetakchi motivlarning mifologik va tarixiy-hayotiy ildizlari qadimgi davrlarga — miloddan avvalgi zamonlarga taqalishini inkor etmaydi. Doston syujet tarkibida islomgacha bo‘lgan qarashlar va mifologik qatlam mavjud. Undagi mifologik qatlam esa, qadimgi turmush tarzining badiylashtirilgan va ideallashtirilgan ko‘rinishlaridir. “Alpomish” 1922-yildan yozib olinib boshlangan. Hozirgacha Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Mahammadqul Jonmurod o‘g‘li, Po‘lkan, Berdi baxshi, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Bo‘ri baxshi, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li, Abdulla Nurali o‘g‘li, Umir baxshi, Haydar Boycha o‘g‘li, Rahmatulla Yusuf o‘g‘li, Hodir Rahim o‘g‘li kabi o‘ttizdan ortiq dostonchilardan qirqaqa yaqin variantlari yozib olingan. Dostonning yozib olingan qo‘lyozmalarining asl nusxalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot instituti folklor arxivida saqlanadi [6:156].

XULOSA (CONCLUSION). Bu variantlar orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksagi

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dan yozib olingani hisoblanadi. “Alpomish”ning Berdi baxshi, Saidmurod Panoh o‘g‘li, Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘ra “Alpomish” dostoni qahramonlik, mardlik, vatanparvarlik, turli elatlar va xalqlarning birodarligi, sevgi va sadoqat, oila mustahkamligi va urug‘ birligini kuylovchi ulkan eposdir [1:211]. Respublikamiz birinchi prezidenti Islom Karimov «Alpomish» dostonining 1000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida aytganidek: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘st-u yorimizni, ornomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi». “Alpomish” dostoni badiiy barkamol asar. Unda o‘zbek xalqi she‘riy dahosining buyuk qudrati to‘laligicha namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Зарифов Н., Узбекский народный героический эпос, М., 1947.
2. Мирзаев Т., «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари, Т., 1968.
3. Турдиев Т. Ўзбек халқининг севимли дostonи. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978.
4. Муродов М. Эргашев А. Алпомишнома. Т. . ”Меҳнат”, 1999.
5. Tursunov S. va boshqa. Surxondaryo – etnografik makon. –Toshkent: Akademnashr, 2012.
6. Jo‘rayev M. “Alpomish” dostonining Surxondaryo talqinlari Moziydan sado. – 2013.
7. Tursunov S.N. Axmedova G.O‘. Milliy xalq og‘zaki ijodida baxshichilik san‘atining yuksalishi. Toshkent: Tafakkur 2021.

